	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETI	

Ro'yxatga olindi: № 60230100. 1.26 2021- yil "26"avgust	**"TASDIQLAYMAN"** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2021 - yil "___" _____

YANGI O'ZBEK ADABIYOTI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	320000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili

Fan dasturi “Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasining 2021-yil 25-may 10-sonli yig‘ilishida muhokamadan o‘tdi.

Kafedra mudiri **prof.Sh.A.Hasanov**

Fan dasturi fakultet uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (22-may 2021-yil. № 8-son bayonnoma).

Fakultet uslubiy kengashi raisi **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi fakultet ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (26-may 2021-yil. № 8-son bayonnoma).

Fakultet ilmiy kengashi raisi **prof.A.Pardayev**

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti kengashining 2021-yil 24-avgustdagi 1-sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan.

O‘quv ishlari bo’yicha prorektor: **prof.A.S.Soliyev**

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
YO'AM3007	*2024-2025*	6-7	7
Fan/modul turi	**Ta'lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O'zbek		4

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy soat (soat)
	Yangi o'zbek adabiyoti	60	150	210

2. **I. Fanning mazmuni**

«Yangi o'zbek adabiyoti va adabiy jarayon» fani adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi hamda adabiy tanqidning yakunlovchi bosqichi. Mazkur fan bevosita adabiy jarayondagi yangilanishlardan talabalarni xabardor qilishi bilan birga ularni baholashga o'rgatadi. Amaliy jihatdan esa talaba adabiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. «Yangi o'zbek adabiyoti va adabiy jarayon» fani nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiyotida kechayotgan yangilanishlar bilan ham talabani boxabar qiladi. Fan ana shunday masalalari bilan dolzarblik kasb etadi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. 1-mavzu. Yangi o'zbek adabiyoti fan sifatida Yangi o'zbek adabiyotini davrlashtirish masalasi Yangi o'zbek adabiyotida realizm bosqichi yangi o'zbek adabiyoti ming yillik tarixiy davrni bosib o'tgan mumtozso'z san'atimizning davomi ekanligi, uning yangiligi XX asr o'zbek so'z san'ati dunyoviy adabiyot sifatida maydonga chiqishi, undan yangi janrlar va shakllar yuzaga kelishi, yangi tasvir uslubi va ijodiy metoddagi izlanishlar ko'rib o'tiladi.

Yangi o'zbek adabiyotini davrlashtirish muammolari va taraqqiyot bosqichlari masalasi yangi o'zbek adabiyotini o'rganishda ahamiyatga ega. Chunki,XX asrning 90 – yillarigacha bo'lgan davrda adabiyotni davrlashtirishda sovet mafkurasi nuqtai nazaridan ish ko'rilardi. Bu haqqoniyat yuzasidan adabiyotni davrlashtirishga xalaqit berardi. Bu esa, davrlashtirishga adabiyotning ichki imkoniyatidan kelib chiqib, yangicha munosabat bildirishni va yangicha davrlashtirishni taqoza etadi.

2-mavzu Fitratning hayoti va ijodi. Adib biografiyasi va ijodining ilk bosqichi. Fitrat she'riyatida ijtimoiy turmush va hayot falsafasi talqini. Fitrat nasri, publisistikasi va dramaturgiyasi. Fitrat ijodining adabiyotshunoslikda o'rganilishi.

3-mavzu Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayoti va ijodi. Adib biografiyasi va ijodining ilk bosqichi. Hamza she'riyatida ijtimoiy turmush va hayot falsafasi talqini. Hamza nasri, didaktik asarlari va dramaturgiyasi. Hamza ijodining adabiyotshunoslikda o'rganilishi.

4-mavzu A.Qodiriyning hayoti va ijodi. Adib biografiyasi va ijodining ilk bosqichi. A.Qodiriy she'riyatida ijtimoiy turmush va hayot falsafasi talqini. A.Qodiriy nasri, publisistikasi va dramaturgiyasi. A.Qodiriy ijodining adabiyotshunoslikda o'rganilishi.

5-mavzu A.Cho'lpon hayoti va ijodi. Adib biografiyasi va ijodining ilk bosqichi. Cho'lpon she'riyatida ijtimoiy turmush va hayot falsafasi talqini. Cho'lpon nasri va dramaturgiyasi. Cho'lpon ijodining adabiyotshunoslikda o'rganilishi.

6-mavzu G'afur G'ulomning hayoti va ijodi(1903-1966) Shoir biografiyasi va ijodining ilk bosqichi. G'afur G'ulom she'riyatida ijtimoiy turmush va hayot falsafasi talqini. G'afur G'ulom nasri: "Shum bola", "Yodgor" qissalari. "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasining tarixiy, ijtimoiy-psixologik omillari.

7-mavzu Oybekning ijodiy faolyati Oybekning hayot yo'li. "Qutlug' qon" va "Ulug' yo'l" romanlari tahlili. Oybekning mumtoz adabiyot tarixiga doir tadqiqotlari. Tarixiy romanning yangi bosqichi: "Navoiy" romani.

8-mavzu Hamid Olimjon ijodi (1909-1944).

Biografiyasi. Ilk ijodida uslubiy izlanishlari. H.Olimjon – ona yurt, tabiat, sevgi, baxt va shodlik kuychisi. Shoir she'riyatida Vatan obrazlari. "O'zbekiston" qasidasida ona yurtga bo'lgan muhabbat va faxr tuyg'ulari. H.Olimjonning urush davridagi ijodi.

9-mavzu Abdulla Qahhorning hikoyanavislik mahorati(1907-1968).

Yozuvchining hayot yo'li va ijodining boshlanishi haqida ma'lumot. Adib hikoyalarida realizm an'analari. "O'g'ri", "Dahshat", "Mayiz yemagan xotin" hikoyalarining tahlili. Abdulla Qahhor romannavis sifatida.

10-mavzu Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi (1908*1968).

Hayoti va ijodi. Adabiy merosi haqida ma'lumot. Shoirning 30-yillar she'riyatida mavzu rang-barangligi. "Jaloliddin Manguberdi" dramasida Jaloliddin xalq qahramoni sifatida. Asarda tarixiy haqiqat va tarixiy talqin. Tragediyada zohiriy va botiniy konflikt. Asarda tarixiy sharoit va tarixiy shaxslar talqini. To'qima obrazlarning asar konflikti va syujetidagi o'rni. Urushdan so'nggi davr ijodidagi o'ziga xoslik. Shayxzoda – yirik adabiyotshunos olim, mohir pedagog sifatida.

10-mavzu Mirtemir hayoti va ijodi

Mirtemir hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Shoir ijodida davr tasviri. Mirtemir she'riyatining insonparvarlik xarakteri. "Onaginam" va "Betobligimda" she'rlarida insoniy dardning o'ziga xos badiiy talqini. "Surat" dostonida "qalb dialektikasi" tasviri. Mirtemir she'riyatida xalqona ruhning yaqqol namoyon bo'lishi. Mirtemir – tarjimon.

	III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar. **Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:** 1. Fitrat lirikasi va nasri 2. Abdulla Qodiriy hajviyoti. 3. Cho'lpon nasri va dramaturgiyasi. 4. G'afur G'ulom nasri. 5. Oybek poeziyasi 6. Abdulla Qahhorning qissa va romanlari 7. Hamid Olimjon dramalari va ijodining o'rganilishi 8. Maqsud Shayxzoda poeziyasi va dramaturgiyasi 9. Mirtemir ijodi. 10. Zulfiya ijodi **IV. <u>Seminar</u> mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.** **Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:** 1. Fitratning tanqidchilik faoliyati va ijodining o'rganilishi 2. Abdulla Qodiriy ijodi va adabiy tanqid. 3. Cho'lpon lirikasi 4. Hamza ijodi atrofidagi munozaralar. 5. Oybek ijodining tanqidchilikdagi talqini. 6. G'afur G'ulom ijodining adabiyotshunoslikda o'rganilishi 7. Abdulla Qahhor komediyalari 8. Hamid Olimjon dramalari va ijodining o'rganilishi. 9. Mirtemir ijodi va uning adabiyotshunoslikdagi o'rganilishi **V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar** Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. 1. Fitratning "Abulfayzxon" tragediyasi muhokamasi 2. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani atrofida munozaralar 3. Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasi atrofida munozaralar **4.** Hamzaning "Bir paranji sirlari" dramasida ijtimoiy muhit tasviri. **5.** Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida obrazlar tizimi
3.	**VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - "Yangi o'zbek adabiyoti" fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumiga kiradi. Mazkur fan filologiyaga oid boshqa fanlarning nazariy va uslubiy asosini tashkil qilib, o`z rivojida aniq yo`nalishdagi fanlar uchun zamin bo`lib xizmat qilish, talabalarning adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish *haqida tasavurga ega bo'lishi*; - Yangi o'zbek adabiyoti tarixi, XX asr adabiyoti, hozirgi adabiy jarayon? adiblarning adabiy merosi haqida bilimga ega bo'lish *va ulardan foydalani olishi*;

	- talabayangi o'zbek adabiyoti bo'yicha o'zbek adiblari asarlari bilan tanishadi, ularning faoliyati xususidagi bilimga ega bo'ladi hamda asarlarni tahlil qilish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • Ma'ruzalar; interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; ko'rgazmali qurollar; • Kompyuter; Internet yangiliklari; • muammoli ta'lim; qiyosiy tahlil.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** **1.** S.Sodiq. Yangi o'zbek adabiyoti. – Toshkent, 2020. **2.** U.Normatov. Yangi o'zbek adabiyoti. – Toshkent, 2012. **3.** S.Mirzayev. Yangi o'zbek adabiyoti. – Toshkent, 2004 **Qo'shimcha adabiyotlar:** **4.** Azim Suyun. O'zlik. – T.: Sharq, 1999 **5.** Normatov U. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007 **6.** Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: Sharq, 2007 **7.** Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T., 2004 **Axborot manbalari (saytlar):** 1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. 2. www. genhis philol.ru. 3. http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism 4. http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti кengashining 2021-yil 24-avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ul**: M.I.Davronova – SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
9.	**Taqrizchilar:** Sh.A.Xasanov SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (ichki) M.Xolova – SamDCHTI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (tashqi)